«**TASDIQLAYMAN**»
Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

**A.K. Shadmanov**
«25» yanvar 2023-yil

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig'ilishining**
**7-sonli BAYONI**

Toshkent shahar «25» yanvar 2023 yil

**Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov** Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor

**Qatnashdilar:** Toshkent tibbiyot akademiyasining Ilmiy kengashi a'zolari (ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI**

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rinlarda – Akademiya) Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti hisoboti.

**Ma'ruzachi** – Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti dekani Xamrayev Abror Asrorovich.

2. Akademiyada vrachlar malakasini oshirish tizimining holati va takomillashtirish yo'llari.

**Ma'ruzachi** – Malaka oshirish fakulteti dekani Nurillaeva Nargiza Muxtarxanovna.

3. Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

**Ma'ruzachi** – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi** – O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

| | | |
|---|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | | **M.Sh. Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | | **S.M. Yusupova** |

## QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti hisoboti” mavzusi bo‘yicha Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti dekani Xamrayev Abror Asrorovichning ma’lumoti qoniqarli deb hisoblansin hamda axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

1.1. Stomatologiya, pediatriya ta’lim yo‘nalishlari moddiy-texnik bazasini yaratish va kuchaytirish maqsadida o‘quv jixozlar, maxsus o‘quv asbob va anjomlar bo‘yicha takliflar kiritilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti dekani A.A.Xamrayev.**

**Muddat: 2023 - yil fevral.**

1.2. Akademiyada ochilgan yangi ta’lim yo‘nalishlarining (Stomatologiya, Pediatriya) o‘quv jarayoni 3 tilda (o‘zbek, rus va ingliz), shu jumladan elektron shaklida, zamonaviy adabiyotlar bilan to‘liq boyitilishi, yangi adabiyotlar yaratilishi bo‘yicha buyurtmalar shaklllantirilishi, xarid qilinishi hamda ijrochi va muddati aniq belgilangan holda bajarilishi ta’minlansin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.U.G‘oipov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 - yil fevral - mart.**

1.3. Akademiyada ochilgan yangi ta’lim yo‘nalishlari (Stomatologiya, Pediatriya) uchun kadrlar tayyorlash maqsadida kasbga yo‘naltirilgan targ‘ibot va saralash ishlari olib borilishi ta’minlansin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti dekani A.A.Xamrayev, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

1.4. Stomatologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha yangi kafedralarni tashkil qilinishi, ularni jihozlash, asbob-uskunalarni xarid qilinishi va klinik bazalarini belgilanishi bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti dekani A.A.Xamraev.**

**Muddat: 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

1.5. Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti kafedralarining bakalavriatura va magistratura yo‘nalishlaridagi ta’lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida diplomdan keyingi ta’lim (magistratura va doktorantura) ni munosib kadrlar bilan boyitish maqsadida seleksiya ishlari olib borilishi ta’minlansin.

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | **S.M. Yusupova** |

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti dekani A.A.Xamrayev.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.6. Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti kafedralarining ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida har bir xodimning o'quv-ilmiy mahsulotlar yaratish vazifalarini bajarilishini monitoringi va nazorat qilinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti dekani A.A.Xamrayev.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.7. Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti kafedralari tomonidan davlat va xorijiy ilmiy grant-loyhalari tanlovlarida faol qatnashishlari hamda xo'jalik shartnomalar bo'yicha ishlar olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti dekani A.A.Xamrayev.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.8. Pediatriya ta'lim yo'nalishi bo'yicha mavjud kafedralar negizida shu fanga tegishli pediatrik kurslar tashkil etilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Tibbiy pedagogika, xalq tabobati, pediatriya va stomatologiya fakulteti dekani A.A.Xamraev.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.9. Barcha fakultet kafedralari professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirilishi, zamonaviy talablarga muvofiq ilmiy izlanishlar hamda o'quv jarayonini olib borilishi, xorijiy Oliy ta'lim muassasalari va markazlari professor-o'qituvchilari bilan tajriba almashinuvini amalga oshirilishi maqsadida kafedralar tomonidan har bir semestr davomida xalqaro o'quv – ilmiy konferensiyalar tashkillashtirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.10. Akademiyaning barcha kafedralarida, jumladan bakalavriat talabalarini xorijiy tillarni o'rganishga yo'naltirilishi, milliy va xorijiy sertifikatga ega bo'lishi, keyinchalik magistratura yo'nalishlariga kirishi bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | **S.M. Yusupova** |

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo‘yicha “Akademiyada vrachlar malakasini oshirish tizimining holati va takomillashtirish yo‘llari” mavzusi bo‘yicha Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillaevaning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

2.1. Vrachlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy tajribadan kelib chiqib (jumladan moddiy-texnik bazasi, masofaviy, raqamlashtirilgan ta’lim tizimlari, baholash mezonlari va h.k) amaliyotga tatbiq etish yo‘llari bo‘yicha takliflar kiritilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

2.2. Akademiyada malaka oshirish kurslarini ko‘paytirish, jumladan radiologiya (M.X.Ismailova), jarrohlik (M.Sh.Akbarov), laborator tashxisi (A.B.Saidov) va boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar kiritilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 fevral.**

2.3. Malaka oshirish kurslarida vrachlarni zamonaviy o‘quv asbob-uskunalarda o‘qitilishi maqsadida moddiy-texnik bazani kuchaytirilishi, yangi anjomlarni harid qilinishi bo‘yicha buyurtmaga takliflar kiritilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 fevral.**

2.4. Nevrologiya, tibbiy psixologiya, travmatologiya-ortopediya, endoskopiya, intervension kardiologiya, urologiya, ftiziatriya, pedagogika va hamshiralar uchun yangi malaka oshirish kurslarni ochilishi bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqilsin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 fevral -mart.**

2.5. Vrachlar malakasini oshirish tizimining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha yillik rejasini tuzilishi, soatlarini taqsimlanishi va yuqori malakali professor-o‘qituvchilarni o‘qitish jarayoniga jalb etilishi ta’minlansin.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 fevral -mart.**

2.6. Malaka oshirish kurslarida kredit-modulli o‘qitish tizimiga asoslangan, uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini joriy etilishi yo‘lga qo‘yilsin.

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | **S.M. Yusupova** |

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.7. Malaka oshirish kurslarida Akademiyaning elektron kutubxona, test markazi va simulyatsion markazdagi imkoniyatlardan keng foydalanilishi (test, virtual patsient va xokazo) ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.8. Malaka oshirish kurslarida vrachlar amaliyotiga doir elektron hujjat almashinuvi jarayoni (registratsiya, elektron xabarnoma, elektron buyruq, elektron shartnoma uzatish, elektron portfolio va h.k.) o'qitilishi yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.9. Malaka oshirish kurslariga jalb etilgan professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish choralari bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.Goipov, Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

3. Kun tartibining keyingi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova 14.00.07.-Gigiena ixtisosligi bo'yicha **professor** ilmiy unvoniga talabgor «Atrof muhit gigienasi» kafedrasi mudiri, Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekani, tibbiyot fanlari doktori F.I.Salomova va 09.00.04 – "Ijtimoiy falsafa" ixtisosligi bo'yicha Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, S.D.Norqulov hamda **dotsent** ilmiy unvoniga talabgorlar:14.00.04– Otorinolaringologiya ixtisosligi bo'yicha Otorinolaringologiya va stomatologiya kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari doktori J.A.Djuraev, 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari doktori N.F.Nurmatova va 14.00.29-Gematologiya va transfuziologiya" ixtisosligi bo'yicha Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi dotsenti, Z.Ch.Kurbonova nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | **S.M. Yusupova** |

Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi. (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. Turli masalalar boʻyicha Xalqaro aloqalar boʻyicha prorektor J.D.Israilov, Oʻquv-uslubiy boshqarma boshligʻi F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash boʻlimi boshligʻi Z.A.Muminova, Ta'lim sifatini nazorat qilish boʻlimi boshligʻi R.I.Toʻraqulov, Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri R.N.Melibaeva va Reja-moliya boʻlimi boshligʻi O.U.Goipov soʻzga chiqdilar.

5.1. Koʻp yillar davomidagi Akademiya va Koryo Universiteti oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlanishida qoʻshgan samaradorli mehnati va xizmatlari uchun Koryo universiteti Prezidenti professor Jin Taek CHUNGga Akademiyaning **Fahriy Professori** unvoni berilsin.

5.2. Akademiyada bakalavriyat va magistratura doirasida "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" (tarmoqlar va sohalar boʻyicha), "Kimyo", "Axborot tizimlari va texnologiyalar" nomli yangi yoʻnalishlari ochilishi boʻyicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: Xalqaro aloqalar boʻyicha prorektor J.D.Israilov, Oʻquv-uslubiy boshqarma boshligʻi F.X.Azizova, Xalqaro fakultet dekani D.Tursunov, fakultet dekanlari.**

**Muddat: 2023 yil mart-aprel.**

5.3. Kafedralarni optimallashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni mustahkamlash maqsadida "Oʻzbek va xorijiy tillar" hamda "Pedagogika va psixologiya" kafedralari birlashtirilsin va "Pedagogika, psixologiya va tillar" kafedrasi deb nomlansin.

5.4. Akademiyaning yangi 2023/2024 oʻquv yili uchun kvota tasdiqlansin.

5.5. Akademiyaning akademik reytingi (reputatsiya) boʻyicha global soʻrovda ishtirok etish uchun barcha kafedralar tomonidan xorijiy universitetlar, xorijiy va milliy tibbiy markaz va klinikalar, sogʻliqni saqlash muassasa yoki tibbiyot kompaniyalardan mutaxassislarning ishtiroklarini ta'minlab berishlari ta'kidlab oʻtilsin (har bir kafedradan kamida 10 nafar mutaxassislarning roziligi olinsin).

**Mas'ul: Barcha kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 yil fevral.**

5.6. Akademiyada xorijiy tillarni oʻrganishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, professor-oʻqituvchilar va talaba yoshlarga xorijiy tillarni oʻrganishni yanada ommalashtirish maqsadida Xalqaro fakultet qoshida "Til oʻrgatish markazi" (rus tilida: Центр обучения языков, ing.tilida: Language learning center) tashkil etilsin.

5.7. Ta'limning kredit-modul tizimida oʻqitish, talabalar tomonidan qoldirilgan va oʻzlashtirilmagan mashgʻulotlarni qayta topshirish tartibi, akademik qarzdor talabalarga qoʻshimcha imkoniyat yaratish maqsadida yozgi semestrni tashkil etilishi har bir professor-oʻqituvchi va talabaga yetkazilsin.

**Mas'ul: Oʻquv ishlari boʻyicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Oʻquv-uslubiy boshqarma boshligʻi F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 yil fevral.**

| | | |
|---|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | | **M.Sh. Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | | **S.M. Yusupova** |

5.8. Akademiyaning ilmiy izlanuvchilar, yosh olimlar va magistr talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab quvvatlash maqsadida ilmiy loyiha, startap va boshqa izlanishlar bo‘yicha tuzilgan ishchi gurux tomonidan o‘tkaziladigan tanlov - saralash asosida barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng loyiqlari deb topilgan loyihalarni Akademiya tomonidan moliyashtirish haqida takliflar kiritilsin.

**Mas’ul:Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.U.Goipov.**

**Muddat:2023 yil fevral-mart.**

5.9. 2022-yil 20-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida berilgan ko‘rsatmalarini ijrosini ta’minlash maqsadida sifatli ta’limni to‘g‘ri tizimli yo‘lga qo‘yishda faol qatnashib, munosib hissa qo‘shgan hamda 2022-yil yakuni bo‘yicha milliy va xorijiy reytinglarida yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan Akademiya professor-o‘qituvchilari bir martalik moddiy rag‘batlantirilsinlar.

**Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i R.I.To‘raqulov, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.G‘oipov, Bosh buxgalter B.Alijonova.**

**Muddat: 1 oy.**

5.10. 2022-yil yakuni bo‘yicha yuklamalarni bajarish holatida salbiy deb topilgan kafedra professor-o‘qituvchilari kamchiliklarini bartaraf etishda ogohlantirish hamda belgilangan muddat ichida o‘quv va ilmiy mahsulotlarida kamchiliklarini bartaraf etmagan professor-o‘qituvchilarga 2022-yil yakuni bo‘yicha xayfsan berilsin, professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejasi bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan taqdirda kollegial organda ko‘rib chiqilganidan so‘ng o‘rnatilgan tartibda xayfsan olib tashlanishi inobatga olinsin.

**Mas’ul: Barcha kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022 yil 5 fevral.**

5.11. Akademiyaning xalqaro hamda mahalliy reytingdagi o‘rnini yaxshilashga hissa qo‘shgan boshqaruv, professor-o‘qituvchi, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarini 2023-yil bo‘yicha qo‘shimcha ravishda rag‘batlantirish mezonlari tasdiqlansin.

**Mas’ul: Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori S.I.Dustmurodov, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.G‘oipov.**

**Muddat: doimiy**

5.12. Xorijiy tilda o‘tilgan mutaxassislik fanlarining har 15 soatlik o‘quv yuklamasi uchun, Akademiyada mutaxassislik fanlaridan xorijiy tilda dars beradigan B2 va undan yuqori darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga yoki mustaqil holda dars jarayonini olib borish layoqatiga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilarning bazaviy lavozim maoshiga 2023-yil fevral oyidan 500 000 (besh yuz ming) so‘m miqdorida qo‘shimcha ustama haq berilishi ta’minlansin.

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | **S.M. Yusupova** |

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.Dj.Isroilov, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, xalqaro fakultet dekani v.v.b. J.X.Tursunov, reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oipov va bosh buxgalter B.I.Alijonova.**

**Muddat:2023 yil fevral.**

5.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'gtrisida'gi PQ-3698-sonli garori, Yazirlar Mahkamasining 2020- yil 26-avgusdagi 517- sonli qarori bilan tasdiqlangan "Respublika oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'tisida" gi nizomi hamda Toshkent tibbivot akademiyasining 2021-yil 20-sentyabrdagi 404-son buyrugi bilan tasdiqlangan "Ilmiy tadqiqot sektori to'g'tisida"gi Nizomning 1.7-bandiga muvofig 2022-yil davomida innovatsiya jamg'armasini rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishga hissa qo'shgan hamda xo'jalik shartnomasi tashabbuskorlari bo'lgan asosiy tartibida ishlab kelayotgan 4-ilovada nomlari ko'rsatilgan xodimlarga shartnomalarning umumiy qiymatining 10 foizi miqdorida rag'batlantirish (soliq to'lovlari bilan birga) ga ruxsat berilsin.

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o'z ishini yakunladi.**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**
**Ilmiy kengashi kotibi** **G.A.Ismailova**

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | **S.M. Yusupova** |